

O‘QUVCHILARDA SO‘Z YASASHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar

1-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Egamova Oltinoy Ashuraliyevna

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarining so‘z yasashiga oid kompetensiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilarining so‘z yasash usullariga oid kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy ahamiyati, shu maqsadga erishish yuzasidan metodik tavsiyalar, didaktik topshiriqlar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: kompetensiya, soʻz yasash, shakllantirish, texnologiya

Inson tafakkuri uning tilida aks etadi, va ana shu til orqali rivojlanadi. Shuning uchun ham ular ikkisi o‘zaro bog‘liq. O‘zbek tili bu o‘zbek tafakkuri degani! Bu esa til, unga oid bilimlar qanchalik chuqur, so‘zlashuv va qo‘llanilish doirasi qancha qancha keng bo‘lsa, bu o‘sha til egalari bo‘lmish xalqning bilimligidan, savodliligidan o‘z ona tili mazmun-mohiyatini anglab yetganligidan dalolat beradi. Dunyodagi qay bir xalqni olmaylik, uning jahon siviliziyasidagi o‘rni va mavqei, betakror milliy o‘zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o‘zlikning birinchi belgisi yuqorida aytganimizdek uning milliy tili bo‘lib, u millatning millat bo‘lib shakllanishining muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til bo‘lmasa el ham, millat ham bo‘lmaydi. Elni – el, millatni millat darajasiga ko‘taradigan uning yashashi va faoliyatini belgilab turadigan vosita til ekan, u bilan butun insoniy qiyofalar shakl-shamoyiliga ega bo‘ladi. Xalqning madaniy - ma’naviy boyligi, aql idroki va ilmiy, tarixiy madaniy boylıkları ham uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda til xalqning qalbi va borlig‘idir. Bundan tashqari, Ona tilimiz jamiyatimiz boyligi, u jamiyat a‘zolarining ya’ni bizning o‘zaro aloqamizni amalga oshiradi, bizning moddiy va ma’naviy turmushimizda ro‘y beradigan barcha voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Shunday ekan, o‘z ona tilimizni ulug‘lash, mavqeini yanada yuksaltirish, uning jahonaro

yangrashiga hissa qo‘shish o‘zini shu yurtning haqiqiy farzandi deb bilgan har bir inson uchun muqaddas burchdir. Tilshunos olimlar tilni ijtimoiy hodisa deya ataydilar. Chunki til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxslarga emas, butun jamiyatga xizmat qiladi. Bundan tashqari, til eng muhim aloqa vositasi ekanligi, u orqali ajdodlarimizning qimmatli merosi yozma shaklda saqlanib bizgacha yetib kelganligi ham uning hayotimizda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol dalilidir. “Til – bu millatning tarixi. Til – rivojlanish va madaniyat o‘chog‘i. Shuning uchun ona tilini o‘rganish va uni asrash shunchaki bekorchi mashg‘ulot emas, balki zaruriy ehtiyoj hisoblanadi” – deb yozgan edi Aleksandr Ivanovich Kuprin. Shunday ekan, bugungi kunda, nafaqat, ta’lim tizimida o‘zbek tilining o‘rni, balki shu tilni yosh avlodga yetkazib berishdek mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning saviyasi, bilimdonligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchilarga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi dolzarb masalalar bugunning asosiy masalalaridandir. Sezilib turibdiki, bizning zimmamizga o‘ta mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Albatta, kelajak yosh avlodlarimizning qo‘lida ekan, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z kasbimizni mukammal egallashimiz va har daqiqa mas’uliyatni his qilmog‘imiz, o‘z ustimizda ishlamoq‘imiz lozim. Inson tafakkuri uning tilida aks etadi, va ana shu til orqali rivojlanadi. Shuning uchun ham ular ikkisi o‘zaro bog‘liq. O‘zbek tili bu o‘zbek tafakkuri degani! Bu esa til, unga oid bilimlar qanchalik chuqur, so‘zlashuv va qo‘llanilish doirasi qancha qancha keng bo‘lsa, bu o‘sha til egalari bo‘lmish xalqning bilimliligidan, savodliligidan o‘z ona tili mazmun-mohiyatini anglab yetganligidan dalolat beradi. Dunyodagi qay bir xalqni olmaylik, uning jahon siviliziyasidagi o‘rni va mavqei, betakror milliy o‘zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o‘zlikning birinchi belgisi yuqorida aytganimizdek uning milliy tili bo‘lib, u millatning millat bo‘lib shakllanishining muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til bo‘lmasa el ham, millat ham bo‘lmaydi. Elni – el, millatni millat darajasiga ko‘taradigan uning yashashi va faoliyatini belgilab turadigan vosita til ekan, u bilan butun insoniy qiyofalar shakl-

shamoyiliga ega bo‘ladi. Xalqning madaniy - ma’naviy boyligi, aql idroki va ilmiy , tarixiy madaniy boyliklari ham uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda til xalqning qalbi va borlig‘idir. Bundan tashqari, Ona tilimiz jamiyatimiz boyligi, u jamiyat a‘zolarining ya’ni bizning o‘zaro aloqamizni amalga oshiradi, bizning moddiy va ma’naviy turmushimizda ro‘y beradigan barcha voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Shunday ekan, o‘z ona tilimizni ulug‘lash, mavqeini yanada yuksaltirish, uning jahonaro yangrashiga hissa qo‘shish o‘zini shu yurtning haqiqiy farzandi deb bilgan har bir inson uchun muqaddas burchdir. Tilshunos olimlar tilni ijtimoiy hodisa deya ataydilar. Chunki til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxslarga emas, butun jamiyatga xizmat qiladi. Bundan tashqari, til eng muhim aloqa vositasi ekanligi, u orqali ajdodlarimizning qimmatli merosi yozma shaklda saqlanib bizgacha yetib kelganligi ham uning hayotimizda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol dalilidir. “Til – bu millatning tarixi. Til – rivojlanish va madaniyat o‘chog‘i. Shuning uchun ona tilini o‘rganish va uni asrash shunchaki bekorchi mashg‘ulot emas, balki zaruriy ehtiyoj hisoblanadi” – deb yozgan edi Aleksandr Ivanovich Kuprin. Shunday ekan, bugungi kunda, nafaqat, ta’lim tizimida o‘zbek tilining o‘rni, balki shu tilni yosh avlodga yetkazib berishdek mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning saviyasi, bilimdonligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchilarga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi dolzarb masalalar bugunning asosiy masalalaridandir. Sezilib turibdiki, bizning zimmamizga o‘ta mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Albatta, kelajak yosh avlodlarimizning qo‘lida ekan, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z kasbimizni mukammal egallashimiz va har daqiqa mas’uliyatni his qilmog‘imiz, o‘z ustimizda ishlamog‘imiz lozim. So‘z yasashning morfologik usuli (keyingi o‘rinlarda affiksatsiya usuli deb yuritiladi) ko‘pchilik adabiyotlarda va maktab darsliklarida affiksatsion usul deb ataladi. So‘z yasashning ushbu usuli barcha til doirasida keng tarqalgan, til boyish manbasining eng mahsuldor usuli deya yuritiladi. Affiksatsiya usuliga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: yasash asosiga affiks

qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi 1. Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasashda affikslar, odatda, asosdan keyin, ayrim hollarda, asosdan oldin qo‘shiladi. Shunga ko‘ra, bu usul bilan hosil bo‘lgan yangi so‘zlar “asos+suffiks” qolipida (sifat+dosh, suv+li, qiyin+a), shuningdek, “prefiks+asos” shaklida ham bo‘ladi (be+ozor, ham+qishloq, ser+hosil). Ikkinchi shaklda berilgan qolip asosan o‘zbek tiliga tojik tilidan o‘zlashgan affikslar orqali so‘z yasashda uchraydi. O‘zbek tili tizimida so‘z yasalishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish bola uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, bu o‘quvchi so‘zning morfologik tuzilishining mohiyatini bilishga, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘zakdosh so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqalarni anglashga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida so‘zlarning semantikasini takomillashtirishga olib keladi, o‘quvchiga ularni nutqda to‘g‘ri va aniq ishlatishga imkon beradi. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida so‘z yasalishini o‘rgatish, shubhasiz, so‘z tarkibini o‘rganish orqali amalga oshiriladi va uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, bunda bolaning ona tili tizimidagi umumiy yo‘nalishini kengaytiriladi, til birliklarining imo-ishora xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, leksik va grammatik tizimlarni bog‘laydi, o‘quvchining tilga oid bilimlari rivojlanishiga hissa qo‘shiladi. Ikkinchidan, nutqning turli qismlarida so‘zlarning yasalishi haqida boshlang‘ich bilim o‘quvchilarga tilni yangi so‘zlar bilan to‘ldirishning asosiy usulini tushunishga yordam beradi va so‘zdagi morfemalarning ahamiyatini, prefiks (old qo‘shimcha)va affikslarning semantikasini tushunishga zamin yaratiladi. Uchinchidan, bolalarga o‘zlari nutq jarayonida ishlatayotgan tarkibida turli affikslar mavjud so‘zlarning ma’nosini hisobga olgan holda ularni nutqda ishlatish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. To‘rtinchidan, so‘z yasalishi va so‘z tarkibini o‘rganish o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘qituvchiga katta imkoniyatlar beradi. Sababi, ushbu ish jarayonida tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, mavhumlashtirish, umumlashtirish kabi aqliy jarayonlar shakllanadi va takomillashadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinfda so‘z yasalishi haqidagi elementar bilim ham o‘quvchilarning tilimizning yangi so‘zlar bilan boyishining asosiy manbaini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi so‘z tilda mavjud bo‘lgan morfemalardan, ma’lum usul va modellar

asosida yasaladi. Soʻz yasalishini kuzatish oʻquvchilarda soʻzga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy taʼsir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi. Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, affikslarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli soʻzlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash baʼzi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini va yasama soʻzning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. Soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini tushuntirish uning soʻz yasashdagi ahamiyatini oʻquvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-eʼtibori soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi leksik maʼnoli soʻz yasalishiga qaratiladi: (masalan: gul-gulchi, guldon, gulla). Yasalgan soʻz qaysi soʻz turkumiga kirishini aniqlash soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida har xil soʻz turkumiga oid soʻzlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi. Boshlangʻich sinfda soʻz yasash hodisasi soʻzning morfemik tuzilishini oʻrganish bilan bogʻliq ravishda olib boriladi. Bu aynan boshlangʻich sinfnin 3-bosqichiga toʻgʻri keladi. Shu davrga kelib, oʻquvchilar darslik orqali “Oʻzak va oʻzakdosh soʻzlar” mavzusi bilan tanishadilar. Ushbu mavzuni oʻrganish jarayonida oʻzak, qoʻshimcha, soʻz yasovchi qoʻshimcha, soʻzlarni bogʻlovchi qoʻshimchalar tushunchalaridan ayrimlari bilan tanishtiriladi. Oʻquvchilarda turli mashqlarni bajarish orqali soʻz yasovchi qoʻshimchalar haqida tushuncha hosil boʻlgach, “soʻz yasovchi qoʻshimchalar” mavzusi bilan tanishtiriladi. Mavzu orqali bir qancha soʻz yasovchi qoʻshimchalar, ularning soʻz tarkibidagi vazifasi qaysi soʻz turkumdan qanday soʻz turkumini yasayotganligi bilan nazariy tanishadilar.

References:

1. Normurodova N. Development of Professional and Methodical Competence of Future Primary school teachers in literacy teaching. Annals of R.S.C.B., Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 8945-8951 Received 16 February 2021; Accepted 08 March 2021. <http://annalsofrscb.ro>
2. G'afforova T., G'ulomova X. . O'qituvchi kitobi. Toshkent, "Sharq", 2003, -b 128.
3. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq, 2005. -128.
4. G'afforova T. , G'ulomova X. O'qish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, "Tafakkur", 2011